



IJTIMOIIY XIZMATLARDA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI TA'SIRI

Nurbekov Shamsiddin Xamza o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy xizmatlarda xususiy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotga ta'siri tahlil qilinadi. Xususiy tadbirkorlik, davlatning ijtimoiy xizmatlar sohasidagi ishtirokini kengaytirish va samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy xizmatlar sohasida qanday qilib innovatsiyalarni kiritishi, xizmatlar sifatini oshirishi va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga qanday hissa qo'shishi tahlil qilingan. Shuningdek, xususiy sektorning ijtimoiy xizmatlarda faol ishtirok etishining iqtisodiy va ijtimoiy natijalari, shu jumladan, bandlik darajasini oshirish, davlat xarajatlarini kamaytirish va xizmatlar sifatini yaxshilash bo'yicha fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy xizmatlar, xususiy tadbirkorlik, milliy iqtisodiyot, iqtisodiy rivojlanish, innovatsiyalar, xizmatlar sifatini oshirish, bandlik, davlat xarajatlari, iqtisodiy ta'sir

Kirish. O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti qaror topgan sayin milliy iqtisodiyotning muhim bo'g'inlaridan bo'lgan ijtimoiy xizmatlar sohasida ham katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, ijtimoiy xizmatlar bozori sub'ektlari-ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy sug'urta va boshqa tarmoqlarning jadal rivojlanishi respublikamizda shakllanayotgan bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo'naltirilganligini bildiradi. Chunki bu tarmoqlar faoliyati insonning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning aqliy qobiliyatini oshirishga, sog'ligini tiklashga, ma'naviy va madaniy ehtiyojini shakllantirish va qondirishga jismoniy salohiyatini saqlashga hamda ishchi kuchini takror ishlab chiqarishga qaratilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishi va fuqarolik jamiyatini barpo etishida ijtimoiy sohaning roli va ahamiyati nihoyatda kattadir. Chunki bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida bir tomondan aholining umumiy tarkibida o'zining ishbilarmonligi va tadbirkorligi tufayli yuqori daromadga ega bo'lgan qismining salmog'i oshib borishi, ikkinchi tomondan o'tish davrida, yo'qotishlarga yo'l qo'ymaslik, muhtojlarni ijtimoiy himoyalash zaruriyati, ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan talabni oshiradi. Shuningdek, milliy iqtisodiyotda ilmtalab tarmoqlarning jadal rivojlanishi, ishlab chiqarishning yangi texnika va texnologiyalar bilan qurollanishi, transport,





moliya, telekommunikatsiya xizmatlari ko'lamining kengayishi, shu bilan birga aholi sonining jadal sur'atlarda o'sishi, fermer xo'jaliklarining tashkil qilinishi oqibatida ishga layoqatli aholining katta qismi qishloq xo'jaligidan bo'shatilishi, aholida ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan talabning o'sishi va hokozalar mazkur sohani jadal rivojlantirishni taqozo qilmoqda.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti, eng avvalo inson manfaatlarini ko'zlaydi. Inson manfaatlarini ro'yobga chiqaruvchi ijtimoiy xizmatlar sohasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy iqtisodiy islohotlarning pirovard natijasi aholi farovonligini ta'minlashga qaratilgandir. Ammo bu farovonlikka erishishning birdan-bir yo'li, ijtimoiy sohani tubdan qayta qurish, uni xalqaro andozalarga muvofiq keladigan tarzda rivojlantirish, mazkur sohada xususiy tadbirkorlikni yo'lga qo'yish bilan bog'liqdir.

Iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, xususiy investitsiyalarsiz va raqobat muhitisiz ijtimoiy soha tarmoqlarida biron bir jiddiy o'zgarishlarga hamda rivojlanishga erishib bo'lmaydi. Shu jihatdan ijtimoiy xizmatlar sohasining barqarorlashuvida xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish muhimdir.

Ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha og'ir yuk davlat byudjeti zimmasida bo'lib, undan ajratilayotgan mablag'lar aholining ijtimoiy xizmatlar bo'yicha o'sib borayotgan ehtiyojini to'laroq qondirish, sohaga fan- texnika yutuqlarini keng joriy qilish, ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash imkonini bera olmaydi.

Zero mamlakatimiz mulkchilikning turli shakllariga asoslangan bozor iqtisodiyotiga o'tishida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishni turli xil shakl va usullarda amalga oshirishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda tadbirkorlik faoliyati orqali mulkchilik munosabatlari shakllanib, mulkdorga foyda keltiradi. Shuning uchun ham, tadbirkorliksiz bozor iqtisodiyotini, bozor tizimi harakatini tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuningdek, xususiy mulk, bozor munosabatlari, tadbirkorlik bir-birlari bilan uzviy bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni ifodalovchi tushunchalar bo'lib, bozor munosabatlari xususiy mulk asosida tashkil topadi va tadbirkorlik faoliyati vositasida harakatga keladi. Shu jihatdan, tadbirkorlik iqtisodiy sub'ektlarning o'z iqtisodiy faoliyatlarini tashkil etish, yuritish erkinligini ifodalaydi va bozor iqtisodiyotida xo'jalik yuritishning asosiy sub'ekti hisoblanadi. Ular erkin bozorda samaradorlikka erishishni ta'minlaydigan iqtisodiy faoliyatning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, hukumatimizning ijtimoiy soha tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan sa'yi-harakatlari faqat ijtimoiy emas, balki iqtisodiy ahamiyatga egadir. Chunki u mamlakatning iqtisodiy qudratini oshirishga yordam





beradi. Aholi uchun munosib yashash, farovon turmush darajalarini shakllantirish vazifalarining ijobiy hal etilishi aynan ijtimoiy xizmatlar sohasi taraqqiyotiga bog'liqdir.

Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasining taraqqiyoti sohada xususiy tadbirkorlikning qay darajada rivojlanganligi bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur sohada xususiy tadbirkorlikning o'rni yuqori bo'lib, u ijtimoiy xizmatlar sohasini rivojlantirishda salmoqli o'rin egallaydi. Yoxud ijtimoiy sohada xususiy tadbirkorlikning yo'lga qo'yilishi mazkur sohaning bozor iqtisodiyoti bilan xamnafas rivojlanayotganligini anglatadi.

Ijtimoiy xizmatlar sohasiga xususiy investitsiyalarning jalb etilishi uning barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlaydi. Masalan, ba'zi iqtisodchilarning ko'rsatishicha, ta'lim tizimi uchun sarflangan bir dollar investitsiya 3,5 barobar ko'p samara beradi.

Ijtimoiy sohaning samarali rivojlanishi xizmatlar bozoridagi munosabatlarning kengayib borishi, takomillashuvi, bozor ishtirokchilarining yangi ehtiyojlarini qondirish, jahonda yuz berayotgan iqtisodiy o'zgarishlarning bashorati, jahon bozorining tarkibiy o'zgarishi kabi ko'plab omillarga bog'liq. Shu bois ijtimoiy xizmatlar sohasini zamon talablari asosida rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Rivojlangan ijtimoiy xizmatlar sohasini yaratish bir vaqtning o'zida sohada davlat va nodavlat sektoriga tegishli bo'lgan xizmat ko'rsatuvchi muassasalarning faoliyat olib borishini ta'minlashni taqozo etadi. Holbuki, ijtimoiy xizmatlar bozorida raqobatga asoslangan muhitni yaratmasdan turib ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash va erishilgan yutuqlarni saqlab qolish mumkin emas. Bunda tadbirkorlarning izlanuvchanligi, novatorligi, islohotchiligi, egiluvchanligi bilan ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni samarali tashkil etish va amalga oshirish, sohada yangi-yangi xizmat turlarini yaratib bozorda taklif etish, ijtimoiy xizmatlarni iste'molchilarga maksimal yaqinlashtirish, zamonaviy ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish muassasalarini barpo etish va kengaytirish, sohada raqobatni rivojlantirib, umuman sohani isloh qilish orqali jadal taraqqiyotiga xissa qo'shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov, B. (2021). *Xususiy tadbirkorlik va ijtimoiy xizmatlar*. Toshkent: "Iqtisodiy nashr" nashriyoti.
2. Tadjibayeva, D. (2020). *Ijtimoiy xizmatlar va xususiy sektor: innovatsiyalar va iqtisodiy rivojlanish*. Toshkent: "Boshqaruv va iqtisodiy siyosat" nashriyoti.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



3. Shukurov, A. (2019). *Xususiy tadbirkorlik va uning ijtimoiy xizmatlardagi o'rni*. Toshkent: "Samarali boshqaruv" nashriyoti.
4. World Bank. (2020). *Private Sector Participation in Social Services*. Washington, D.C.: World Bank Group.
5. OECD. (2021). *Private Enterprise in Public Service Delivery: Lessons and Best Practices*. Paris: OECD Publishing.
6. IMF (Xalqaro valyuta jamg'armasi). (2020). *The Role of Private Sector in National Economic Development*. Washington, D.C.: IMF Publications.

